




IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING NAVBATDAGI SAMMITI DOIRASIDA IKKI TOMONLAMA SAMARALI UCHRASHUVLAR O'TKAZILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-noyabr kuni Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining o'n oltinchi sammitida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Xusrav Noziriy, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Anvar ul-Haq Kakar, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan uchrashuvlar o'tkazildi.



IHT bosh kotibi Xusrav Noziriy bilan uchrashuvda Birlashma doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish, ushbu ko'p tomonlama tuzilmalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, eng avvalo, savdo, transport, investitsiyalar, innovatsiyalar, ekologiya, turizm sohalarida qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun katta salohiyat mavjudligini qayd etdi.

Bosh kotib O'zbekiston IHT faoliyatida faol ishtirok etayotgani, ilk bor Toshkentda "Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari" shiori ostida o'tkaziladigan IHTning navbatdagi

sammiti yuqori saviyada tayyorlangani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi. Mamlakatimizning 2021-yilgi Ashxobod sammiti davomida ilgari surilgan tashabbuslari izchil amalga oshirilayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Uchrashuv chog'ida IHT davlatlari yetakchilarining bo'lajak Toshkent yig'ilishi kun tartibi yuzasidan fikr almashildi.

Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Anvar ul-Haq Kakar bilan uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport-kommunikatsiya sohalarida yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Turli darajalarda faol muloqot olib borilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmi yil boshidan buyon 40 foiz oshdi. To'qimachilik, kimyo, farmatsevtika va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Yigirmata qo'shma korxonalar tashkil etildi.

2024-2025-yillarga mo'ljallangan Sanoat kooperatsiyasi dasturini tez fursatda qabul qilish, ishbarmonlik aloqalarini rivojlantirish uchun savdo to'siqlarini bartaraf etish va qulay sharoitlar yaratish muhimligi ta'kidlandi.

Transfag'on temir yo'lini qurish loyihasini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan uchrashuvda O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro savdo hajmi jadal sur'atda o'smoqda, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa ustuvor yo'nalishlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Tadbirlarga boy madaniy-gumanitar hamkorlik dasturi ro'yobga chiqarilmoqda.

O'zbekiston va Qirg'iziston yetakchi-

lari oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish muhimligini qayd etildi. Davlat rahbarlari Markaziy Osiyo mintaqasidagi yirik infratuzilma loyihalari tez fursatda boshlash masalalariga alohida to'xtalidilar.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan uchrashuvda O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro muloqot va almashinuvlar faol davom ettirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi, to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar soni, sayyohlar oqimi ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Yil boshidan 500 million dollardan ortiq to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar jalb qilindi, 200 dan ziyod yangi korxonalar tashkil etildi.

Savdo, sanoat, innovatsiyalar, energetika, transport, ta'lim, madaniyat, turizm va boshqa sohalaridagi qo'shma loyiha va dasturlarni jadallashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Bo'lajak tadbirlar rejasi, shu jumladan, O'zbekiston — Turkiya Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rib chiqildi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O'ZA

IHT Bosh kotibi Xusrav NOZIRIY:

O'ZBEKISTONNING IHTDAGI FAOL POZITSIYASI MAMLAKATNING SO'NGGI YILLARDAGI HAYRATLANARLI RIVOJLANISH BO'YICHA SA'Y-HARAKATLARINING BIR QISMIDIR

8-9-noyabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tayotgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti arafasida "Dunyo" AA muxbiri mazkur tashkilot Bosh kotibi Xusrav Noziriy bilan IHTni yanada rivojlantirish istiqbollari va ushbu jarayonda O'zbekistonning ishtiroki haqida suhbatlashdi.

— Janob Noziriy, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining Toshkentda bo'lib o'tadigan 16-sammitdan kutilayotgan natijalar va forum kun tartibidagi ustuvor masalalar haqidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

— Rahmat. Avvalo, ta'kidlab o'tish joizki, IHT 16-sammitining a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari ishtirokida Toshkentda o'tkazilishi biz uchun katta sharafdir.

O'zbekistonning IHTdagi faol pozitsiyasi mamlakatning so'nggi yillardagi hayratlanarli rivojlanish sa'y-harakatlarining bir qismidir. Mamlakatimizning jahon va mintaqaviy obro'-e'tibori sezilarli darajada oshganidan, shuningdek, so'nggi iqtisodiy rivojlanishiga guvoh bo'lishdan, uning istiqbolli ekanini ko'rishdan mamnunmiz.



Ushbu sammit mintaqaga ta'sir etayotgan muayyan xalqaro o'zgarishlar fonida o'tkazilmoqda. Shu ma'noda, sammit tashkilot faoliyatini tahlil qilish va kelgusidagi sa'y-harakatlarni yo'naltirish uchun yetakchilarimizni to'playdigan xalqaro forum sifatida yuksak ahamiyat kasb etadi. Sammitda IHT faoliyatini muhokama qilindi va savdo, energetika, transport, atrof-muhit, turizm, qishloq xo'jaligi, sanoat va "yashil" rivojlanishga oid ustuvor tarmoqlardagi mintaqaviy hamkorlikning holati ko'rib chiqildi.

Davomi 2-betda



Uzoq yillik sokinlikdan uyg'ongan kuchli vulqon kabi bugun dunyoning turli mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan mojarolar insoniyat xavfsizligi va farovonligi, iqtisodiyot barqarorligi, bir so'z bilan aytganda, sayyoramiz kelajagiga katta xavf tug'dirmoqda. Bu holat barcha davlatlar, jumladan, Uchinchi Renessans paydovorini yaratishdek buyuk maqsadlar sari dadil odimlayotgan, katta yo'l boshidagi O'zbekiston uchun g'oyat xatarlidir.

TARAQQIYOT yoxud TANAZZUL

QAY BIRI TOMON BORISHIMIZ BUGUNGI INTILISHLARIMIZ SHIDDATIGA BOG'LIQ

Mana shunday geosiyosiy, geoiqtisodiy murakkab bir vaziyatda eng katta xavf — harakatsizlik. Bunda to'g'ri va shiddatli harakat taraqqiyotga, aksincha, ana shu vaziyat yaratgan to'liqida oqib

borish tanazzulga yetaklaydi. Demak, qay bir manzil tomon borishimiz bugungi sa'y-harakatlarimiz shiddatiga bogliq.

Davomi 3-betda

MEHRLI JAMIYAT

INSONNI QADRLASH YANGI O'ZBEKISTON SIYOSATINING QALBIGA AYLANDI

SIZ VATANDAN OLISDASIZ, LEKIN VATAN SIZDAN OLISDA EMAS

Biz bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz! Davlatimiz rahbarining bu so'zlari bugun nafaqat mamlakatimiz hududida, balki olisda yashab, mehnat qilayotgan, ta'lim olayotgan yurtdoshlarimiz qalbida ham aks sado bermoqda.

Vatanni bejir onaga qiyoslamaymiz. Zero, farzandlari qayerda bo'lmasin, ona uning tashvishini qiladi, kamolini tilaydi. Bugun yangi O'zbekistonda, birinchi navbatda, inson qadriini ulug'lash, xalqimiz uchun munosib hayotiy shart-sharoitlar yaratib berish, yillar davomida to'planib qolgan ijtimoiy muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish, qayerda yashab, mehnat qilayotganidan qat'i nazar, O'zbekiston fuqarolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining o'ziga, to'g'rirog'i, qalbiga aylandi.

Prezidentimiz topshirig'iga binoan, joriy yil 9-20-oktabr kunlari Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi a'zolari, vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar mas'ullari, adabiyot va san'at, OAV vakillaridan iborat 32 kishilik delegatsiya Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.

Delegatsiya a'zolari Rossiyaning qator hududlarida hukumat mas'addilari, mahalliy hokimiyat vakillari va boshqa manfaatdor shaxslar bilan ushbu davlatda mehnat qilayotgan yurtdoshlarimiz manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 50 dan ortiq muzokara o'tkazdi. O'zbekiston fuqarolari qonuniy asosda mehnat qilishi uchun shart-sharoitlarni kafolatlash, qo'shimcha qulaylik va imtiyozlar



yaratish, yoshlar ta'limi va madaniy hamkorlik masalalarida 15 ta memorandum, shartnoma va kelishuv imzolandi.

Safar davomida yirik ishlab chiqarish korxonalar, qurilish obyektlari, bozorlar, vatandoshlarimiz istiqomat qilayotgan yotoqxonalari, xonadonlar, talabalarimiz tahsil olayotgan ta'lim muassasalariga borildi. Mamlakatimizning Rossiyadagi elchixonasi, konsullik muassasalarida uchrashuvlar tashkil etildi.

Davomi 5-betda

IHT Bosh kotibi Xusrav NOZIRIY:

O'ZBEKISTONNING IHTDAGI FAOL POZITSIYASI MAMLAKATNING SO'NGGI YILLARDAGI HAYRATLANARLI RIVOJLANISH BO'YICHA SA'Y-HARAKATLARINING BIR QISMIDIR

Бошланиши 1-бетда

Shuningdek, tadbir doirasida a'zo davlatlar rahbarlari samarali ikki tomonlama hamkorlik uchrashuvlari va konstruktiv muhokamalar o'tkazishlariga ishonaman, bu ham mintaqadagi tinchlik, farovonlik va barqarorlikka katta hissa qo'shadi, deb umid qilaman.

— O'zbekiston 2022-yilda birinchi marta Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga raislik qildi. Mamlakatimizning tashkilotga raisligi davrida qayd etilgan natijalarni qanday baholaysiz?

— So'nggi yillarda O'zbekiston mintaqaviy hamkorlik va aloqalarni mustahkamlash maqsadida tashkilot bilan juda faol hamkorlik qilyotganini e'tirof etishim lozim. Joriy yilning yanvar oyida Toshkentda barcha a'zo davlatlar tashqi siyosat idoralari rahbarlari ishtirokida Tashqi ishlar vazirlari kengashining 26-yig'ilishi bo'lib o'tgani a'zo davlatlar tomonidan O'zbekistonga yuksak e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir.

2022-yilda O'zbekiston raisligida IHT o'z oldiga qo'yan maqsadlarini jadal sur'atda amalga oshirdi. O'zbekiston tomonidan hamkorlikning muhim yo'nalishlari bo'yicha bir qancha oliy darajadagi va vazirlar uchrashuvlari muvaffaqiyatli tashkil etildi. Bu esa a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni, xususan, transport va aloqa sohasidagi hamkorlikni kuchaytirishda juda samarali natijalar berdi.

Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022-yil IHT makonida "O'zaro bog'liqlikni mustahkamlash yili" deb e'lon qilinishi yuqori baholandi.

Shuningdek, O'zbekiston o'z raislik davrida xalqaro olim va ekspertlar ishtirokida ekologik hamkorlik bo'yicha yuqori darajadagi muloqot platformasini tashkil etishga rahbarlik qildi. Biz tashkilotning atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini boshqarishdagi O'zbekistonning faol pozitsiyasini, shuningdek, biologik xilma-xillik, yerlangan



degradatsiyasi va iqlim o'zgarishi bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirishdagi tashabbuskorligini yuqori baholaymiz.

O'zbekiston o'z raisligi davrida turizm sohasida ham juda faol bo'ldi. 2022-yilda IHT turizm vazirlarining IV yig'ilishi O'zbekiston tomonidan samarali tashkil etildi. Bundan tashqari, 2022-yilda Ozarbayjon, Eron, Pokiston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston va O'zbekistondan 242 turoperator va sayyohlik agentliklarini birlashtirgan IHT Turoperatorlari tarmog'i tashkil etildi. O'zbekiston o'zining buyuk tarixiy va tabiiy ne'matlari bilan alohida ajralib turadi. Shu munosabat bilan biz O'zbekistonda Shahrisabz shahri "2024-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti turizm poytaxti" etib tanlangani bilan tabirliklaymiz.

— IHTning asosiy maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport va logistika, shuningdek, turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Ushbu sohalarda so'nggi yillarda erishilgan qaysi natijalarni alohida ta'kidlagan bo'laridingiz?

— Savdo sohasida IHT, birinchi navbatda, imtiyozli savdo tizimi orqali savdoni erkinlashtirish, osonlashtirish va ustuvorliklarimiz asosida raqobatlashishni ko'zda tutadi. Asosan, eksporthga yo'naltirilgan

siyosatni o'z ichiga olgan yondashuvimiz mintaqaga savdo oqimini jalb qilish va ko'paytirish, biznes yuritish xarajatlari va vaqtini qisqartirish, mintaqaning jahon bozorida ulushini oshirish va yakuniy maqsad — IHT mintaqasining savdo profilini oshirishga qaratilgan.

Biz energetika sohasida barqaror va samarali energiya manbalariga o'tish muqarrar ekanligini tan olamiz. Shu nuqtayi nazaridan, Bokuda IHT "Toza energiya" markazining tashkil etilishi muhim qadam bo'ldi. Ushbu markaz energetika sohasidagi hamkorlik va mintaqadagi faoliyatni kuchaytiradi. Energetika sohasida yana bir eng muhim loyiha IHT mintaqaviy elektr energiyasi bozorini tashkil etishdir. Bu mintaqadagi ilg'or va integratsiyalashgan elektr energiyasi bozori va infratuzilmasiga olib keladigan tegishli energiya savdosini uchun mintaqaviy soybbon yaratishga qaratilgan. Biz uni erta ishga boshlash uchun Energiya xartiyasi va BMTning Osiyo va Tinch okeani bo'yicha Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (UNESCAP) bilan hamkorlik qilmoqdamiz.

O'zaro bog'liqlik kontekstida dengizga chiqish imkonini bo'lmagan mamlakatlarning kuchli ichki mintaqaviy va mintaqalararo aloqalarga ega bo'lishiga yordam berishga intilamiz. Shu maqsadda global hamkorlikimiz, eng muhimi, BMTning tegishli agentliklari bilan hamkorlikni davom ettiryapmiz. O'zaro bog'liqlik borasidagi sa'y-harakatlarimiz, jumladan, mintaqaning

sharqiy qismida IHT havo markazini tashkil etish, turli yo'laklarni, jumladan, Transkasp va Olmaota — Tehron — Istanbul yo'laklarini rivojlantirish, shuningdek, Islomobod — Tehron — Istanbul yo'nalishini kengaytirishdan iborat. Bolgariyaga temir yo'l koridori bu — IHTning Janubiy Osiyoni temir yo'l orqali Yevropa bilan bog'laydigan ilk tashabbusi.

Turizm, oziq-ovqat xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha boshqa muhim tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, IHT turizm bo'yicha harakatlar rejasini va IHT turizm poytaxtlarining muvaffaqiyatli konsepsiyasi, Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha IHT mintaqaviy dasturi, IHTning Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha mintaqaviy muvofiqlashtirish markazining dasturga asoslangan tashkilotdan o'zini o'zi ta'minlaydigan institutga aylantirishi va xalqaro olim hamda ekspertlar ishtirokida IHTda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik yuzasidan yuqori darajadagi muloqot platformasi shakllantirildi.

— Transport va logistika IHT doirasida ustuvor sohaga aylanib bormoqda. Keling, bu boradagi hamkorlikning holati va istiqbollari haqida gaplashsak.

— O'zaro bog'liqlik va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq, biz mintaqada konsolidatsiyalashgan transport infratuzilmasini rivojlantirishga

e'tibor qaratdik. Tashkilot nizomini ishlab chiqish, qonunchilik bazasini yaratish, xalqaro standart tartib va konvensiyalarini amalga oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, salohiyatni oshirish, texnik hamkorlik, muvofiqlashtirish mexanizmi hamda tegishli xalqaro hamkorlar va banklar bilan munosabatlarni o'z ichiga olgan yaxlit yondashuvni qabul qildi.

Shu nuqtayi nazaridan, mintaqada transport tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, transport va logistika sohasi bugungi kunda mintaqaviy hamkorlik kun tartibimizning eng muhim sohasidir.

Maqsadlarimizni amalga oshirishda 2-3-noyabr kunlari Toshkent shahrida transport vazirlarining 12-yig'ilishi bo'lib o'tdi, unda mintaqaviy aloqalarni kengaytirish bo'yicha masalalar yuzasidan umumiy tushuncha va kelishilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish istagi paydo bo'ldi.

Xususan, IHT tranzit transport bo'yicha asosiy kelishuv tashkilot doirasida transport aloqalarini kengaytirish siyosatining maksimal tarkibiy qismlarini qamrab oluvchi o'zaro bog'liqlik borasidagi sa'y-harakatlarimizning asosiy manbani hisoblanadi. Ushbu kelishuv Muvofiqlashtiruvchi kengash va texnik qo'mitalar orqali a'zo davlatlar o'rtasidagi aloqa bo'yicha hamkorlikni tartibga solish va mustahkamlashga intiladi.

Biz, shuningdek, BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasi bilan Transkasp va Olmaota — Tehron — Istanbul yo'laklari bo'yicha muvofiqlashtirish qo'mitasi doirasida ham hamkorlik qilamiz.

Transport va ulanish sohasidagi boshqa muhim tadbirlar sifatida ikkita yangi yo'lakni, ya'ni Qirg'iziston — O'zbekiston — Turkmaniston — Eron va Tojikiston — O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya koridorlarini tashkil etish va boshqa qator tadbirlarni sanab o'tish mumkin.

— O'zbekistonning IHTdagi rolini qanday baholaysiz?

— Yuqorida aytib o'tganimdek, O'zbekiston IHTga a'zo juda muhim

davlatdir. Tashkilotga a'zo davlatlar O'zbekistonning 2022-yilda raisligi davrida IHTning mintaqadagi o'zaro taraqqiyot va farovonlik kun tartibidagi tashqisiga loyiq roli va mukammal boshqaruvini munosib ravishda e'tirof etadi.

O'zbekistonning geografik o'rni Markaziy Osiyoni bog'lovchi nuqta sifatida mintaqani bog'lashda juda muhim rol o'ynash va atrofda mamlakatlarni taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

O'zbekistonning IHTdagi o'rni ortib borayotgani, ayniqsa, raislik yillarida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish jarayonini olg'a surish va qo'llab-quvvatlashda muhim bo'ldi. Tashkilot O'zbekistonning IHT faoliyatidagi roli ortib borayotganini, bu tuzilmaning o'sishi va rivojlanishiga juda katta hissa qo'shganini mamnuuniyat bilan qayd etadi.

Xususan, IHT faoliyati 2022-yilda o'zaro aloqalarni mustahkamlash mavzusiga muvofiq mintaqada bog'liqlik maqsadlarini imkon qadar amalga oshirishga qaratilgan edi. Shu munosabat bilan IHT Kotibiyati mintaqaviy bog'liqliklarga bevosita hissa qo'shadigan yangi tashabbuslarga ustuvor ahamiyat qaratdi. Bular Tojikiston — O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya multimodal koridori va Qirg'iziston — O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya yo'laklari bo'lib, mintaqadagi transport aloqalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Havo aloqasi ham mamlakatlarni va mintaqamiz iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shganligi sababli, tashkilot Markaziy Osiyodagi IHT mintaqaviy markazi konsepsiyasini ishlab chiqindi. Umid qilamanki, bunday havo xabini tashkil etishga qiziqish ortib boradi va to'g'ri ko'rib chiqiladi.

Biz O'zbekistonning barcha ustuvor jabhalarda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha umumiy ishimizga qo'shayotgan hissasidan juda xursandmiz.

"Dunyo" AA

BIZNES FORUM

IHT MAKONIDA IQTISODIY BARQARORLIK

BIZNES VAKILLARINING O'ZARO HAMKORLIGIGA TAYANADI

Hozirgi kunda dunyo iqtisodiyotida barqarorlikni ta'minlash har qachongidan dolzarb bo'lib boryapti. Bunday sharoitda hamjihatlikdagi hamkorlik, o'zaro manfaatli aloqalarning yangi qirralarini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) a'zo mamlakatlarni o'rtasida iqtisodiy aloqalar, jumladan, savdo-sotiqni kengaytirish, iqtisodiy o'sish va aholining turmush darajasini ko'tarish uchun shart-sharoitlarni yaratish, ma'naviy va madaniy aloqalarni kuchaytirish borasida tobora ahamiyati oshib borayotgan muhim tuzilmalardan biriga aylangan.

Eron, Pokiston hamda Turkiya tomonidan dastlab "Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish" nomi bilan tuzilgan tashkilot ichki mintaqaviy savdo susayib ketishi oqibatida bir oz muddat o'z faoliyatini to'xtatadi. 1985-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sifatida qaytadan tashkil etiladi. Mintaqa va xalqaro doirada o'ziga xos nufuzga ega mazkur tashkilotga O'zbekiston 1992-yilda a'zo bo'lgan.

O'zbekistonning IHTga qo'shilishi tuzilma faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Chunki Markaziy Osiyo markazida joylashgan O'zbekiston yon atrofda davlatlar va mintaqada rivojida muhim o'rinni tutadi. O'tgan vaqt mobaynida O'zbekiston tomonidan tashkilot faoliyati istiqboliga doir ko'plab taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Amaliy harakatlar yanada jadalashtirildi.

Bugungi kunda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga o'nita davlat — Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekiston a'zo.

So'nggi paytlarda O'zbekistonning Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamkorligi sezilarli darajada faollashdi.

Jumladan, tashkilotning 15-sammitida davlatimiz rahbari tomonidan jami 8 ta dolzarb taklif va tashabbus ilgari surilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar ularning 5 tasi to'liq bajarilgan.

O'zbekistonning 2022-yilda IHT raisligini samarali tashkil etish hamda raislik davri "O'zaro bog'liqlikni mustahkamlash yili" deb e'lon qilinishi, o'zaro sarmoyalar oqimini ko'paytirish va ularni ishonchli himoya qilish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishga qaratilgan qo'shma harakatlar dasturi (yo'l xaritasi) qabul qilinishi, xalqaro ekolog olimlar va ekspertlar ishtirokida yuqori darajadagi doimiy muloqot kengashi



tuzilishi, xavfsiz sayyohlikni rivojlantirish umumimintaqaviy dasturi qabul qilinishi, tashkilot faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar tayyorlash uchun yuqori darajadagi ekspertlar guruhi tuzilishi shular sirasidan. Qolgan 3 ta tashabbus bo'yicha ishlar davom etmoqda.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda O'zbekistonning tuzilma tarkibidagi mamlakatlarni savdo aylanmasi 35,1 foiz o'sib, 11,2 milliard dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda o'sish tendensiyasi davom etgan: tovar ayirboshlash ko'rsatkichi 10,4 foiz ko'payib, 12,4 milliard dollarga yetgan.

Shuningdek, O'zbekiston tashqi savdosida IHT ulushi 24,7 foizni tashkil etadi. E'tibori jihat, 5,75 milliard dollarlik eksport hajmi 2021-yildagiga nisbatan 6,3 foiz yuqori.

Import esa 6,62 milliard dollar — 14,3 foiz o'sgan. O'tgan yil umumiy eksportning uchdan bir qismi, ya'ni 29,8 foizi ushbu tashkilot mamlakatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Joriy yil to'qqiz oy davomidagi ko'rsatkichlar misolida hamkorlik sezilarli darajada faollashganiga guvoh bo'lamiz. Shu vaqt mobaynida IHT doirasida tovar aylanmasi 9,2 milliard dollarni, a'zo mamlakatlarning O'zbekiston umumiy tovar aylanmasidagi ulushi 20,5 foizni tashkil

etdi. Eksport miqdori 4,2 milliard dollar, import esa 5 milliard dollarga teng bo'lgan. Bular mazkur tashkilotga a'zo davlatlar iqtisodiyoti bir-biriga bog'liq holda rivojlanib borayotganidan dalolatdir.

Umuman, global iqtisodiyotning o'zi mamlakatlarni o'rtasidagi integratsiya, ularning hamkorlik doirasidagi munosabatlarga tayanadi. Shu jihatdan kecha poytaxtimizda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining o'n oltinchi sammiti doirasida ishtirokchi davlatlar


biznes vakillari uchrashuvi bo'lib o'tgani ham bu boradagi ishlarni kengaytirishga xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xorij ishbirolar doiralari bilan bu kabi ko'p qirrali aloqalar jahon hamjamiyati, biznes doiralari va yirik sarmoyadorlarning keng miqyosli loyihalarni hayotga tatbiq etish, mamlakatimizning ulkan salohiyatidan mintaqada iqtisodiy yo'llarining chorhasi sifatida foydalanishdan manfaatdor ekanidan darak beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va IHT o'zaro hamkorlik sohasida katta tajriba ortirib, uzoq muddatli istiqbol uchun mustahkam poydevor yaratyapti. O'zbekiston har tomonlama sheriklikni kengaytirishga munosib hissa qo'shgan holda IHT a'zo davlatlari bilan munosabatlarni muvaffaqiyatli davom ettirmoqda.

Forumning asosiy vazifalari hududlar va sohalar salohiyatini namoyish etish, a'zo mamlakatlarni kompaniyalarini O'zbekistondagi yangi investitsiya loyihalari jalb qilish, O'zbekiston va IHT a'zo davlatlari Savdo-sanoat palatalari o'rtasida institutsional aloqalarni mustahkamlashdan iborat edi. Yakunda shunday bo'ldi ham. Negaki, forum asosida qator taqdimotlar o'tkazildi. Uchrashuvlar tashkil etilib, ular davomida yonilgi-energetika kompleksi, kimyo, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati, savdo va boshqa sohalaridagi ishbirolarlik aloqalarini rivojlantirish yo'lidagi keyingi amaliy ishlar belgilab olindi.

Biz biznes forum ishtirokchilarining ba'zilar fikrlarini yozib oldik.



Bahodir ABDULLAYEV, O'zbekiston Respublikasining Eron Islom Respublikasidagi elchisi, mamlakatimizning IHTdagi doimiy vakili:

— Mazkur tashkilotga 1992-yilda Markaziy Osiyodagi besh mamlakat, jumladan, O'zbekiston ham a'zo bo'lgan. Qayd etish joizki, ko'p yillar davomida tashkilot doirasida hamkorlik ancha sust kechdi. Ammo oxirgi yillarda aloqalar jonlanayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, 2017-yildan keyin O'zbekistonning faollashuvi, tashkilot ekspertlari fikricha, hamkorlikni yanada kengaytirdi. Bunda davlatimiz rahbarining tashqi siyosatidagi diplomatik faolligi muhim rol o'ynadi. Sababi, aynan Prezidentimiz tomonidan tashkilot doirasida qator tashabbuslar o'rtaga tashlandi.

Jumladan, 2021-yil Ashxobodda bo'lib o'tgan sammitda bevosita davlatimiz rahbari tomonidan sakkizta tashabbus ilgari surilgani va ular barcha ishtirokchi davlatlar tomonidan nafaqat qo'llab-quvvatlangani, endilikda bu an'anaga aylangan buning tasdiqidir. Ya'ni har bir mamlakat tashkilotga raislik davrida muayyan shior asosida faoliyat yuritishi bo'yicha kelishuvga

erishildi. Xususan, joriy yilda tashkilotga Ozarbayjon raislik qilgan bo'lsa, bu yilgi shior "Yashil o'tish va o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash" bo'ldi.

Kelgusi yili esa tashkilotga Eron raislik qiladi va uning faoliyati ham muayyan shiorga asoslanadi.

Umuman olganda, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti ko'p qirrali katta platforma. Bu maydonning asosiy yo'nalishlari savdo, transport, tranzit, turizm, ekologiya hamda inson resurslariga qaratilgan. Shundan kelib chiqqanda, uning O'zbekiston uchun manfaatli jihatlari juda ko'p. Avvalo, unga a'zo mamlakatlarni O'zbekistonga yaqin qo'shish. Bu esa yurtingizning ular bilan yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarda aloqalarini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyat beradi.

Ushbu sammit O'zbekiston uchun tarixiy voqea. Chunki u yurtingizda ilk bor o'tkazilmoqda. Undan kutilayotgan natijalar mamlakatlarni o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishi turgan gap.

"Ko'zlangan maqsad IHT mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish, O'zbekiston va tashkilotning a'zo davlatlari tadbirkorlari o'rtasida yangi aloqalar o'rnatishdan iborat edi. Shunga erishildi.

Jamshid O'ROQOV, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi o'rinbosari:

— Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining o'n oltinchi sammiti oldidan o'tkazilgan biznes forum uning rannaqiga xizmat qiladi. Forumda Ozarbayjon, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiyadan 300 ga yaqin, mamlakatimizdan 300 dan ortiq biznes vakili ishtirok etib, IHT doirasida savdo-iqtisodiy hamkorlikning holati, shuningdek, uni kengaytirish istiqbollari va faollashtirish masalalarini muhokama qildi.

Ko'zlangan maqsad IHT mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish, O'zbekiston va tashkilotning a'zo davlatlari tadbirkorlari o'rtasida yangi aloqalar o'rnatishdan iborat edi. Shunga erishildi.

Biznes forum yakunida ishtirokchilar bu kabi tadbirlarni davom ettirish istagini bildirib, IHT a'zo davlatlari o'rtasidagi konstruktiv hamkorlik bundan keyin ham

muvaffaqiyatli rivojlanishi, bunda uzoq muddatli istiqbol uchun ko'p qirrali sheriklikning yangi yo'nalishlari belgilanishiga ishonch bildirdi.

Biznes forumdan so'ng salkam 600 tadbirkorning B2B muloqoti tashkil etildi. Bu ularga o'zaro hamkorlik o'rnatish uchun katta imkoniyat yaratdi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotning muhim jihatlardan biri a'zo mamlakatlarni o'rtasida o'zaro sheriklik, ishbirolarlik muhitini yanada mustahkamlashdir. Bu O'zbekiston uchun juda muhim. Chunki bugun biz yaxshi qo'shniqlik munosabatlarni rivojlantiryapmiz. Pokiston, Eron, Ozarbayjon orqali dengiz savdo yo'llariga chiqishga harakat qilayapmiz. Demak, mana shu yo'llar orqali kelajakda tadbirkorlarimizning eksport imkoniyati yanada oshadi.

Dilshod ULUG'MURODOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

TARAQQIYOT yoxud tanazzul

QAY BIRI TOMON BORISHIMIZ BUGUNGI INTILISHLARIMIZ SHIDDATIGA BOG'LIQ



Ismoil SAIFNAZAROV, falsafa fanlari doktori, professor

Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan amaliy ishlar jadidchilik harakatining asosiy g'oya va maqsadlari bilan uyg'un va hamohang ekanini yaqqol ko'rish mumkin. Shu sababli biz tariximiz, xususan, ma'rifatparvar ajdodlarimiz merosini chuqur o'rganib, ulardan bugungi shiddatli zamon uchun ibratli xulosalar chiqarib yashashimiz zarur. Ana shunday bilim va ma'rifat

asosida maktab, texnikum va oliygohlarda o'qiyotgan yoshlarni tarbiyalashimiz kerak. Mana shu ikki tayanch ustun orqali mamlakatimizning rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishiga hissa qo'shishimiz mumkin.

Boshlanishi 1-betda

Ana shu nuqtayi nazaridan, mamlakatimiz sharoitida ko'ngilni xotirjam qiluvchi asoslar yetarli ekan, ming shukrki, faxrli, har qancha tahsinga sazovor. Buning uchun uzoqqa borish shart emas, Prezidentimizning o'tgan va joriy haftadagi ish faoliyatining asosiy jihatlari e'tibor qaratilishining o'zi kifoyaga. Masalan, davlatimiz rahbari 1-2-noyabr kunlari mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronni qabul qildi. Tashrif doirasida Fransiyaning qator nufuzli kompaniyalari rahbarlari bilan shaxsan uchrashuv o'tkazildi.

3-noyabr kuni Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlari kengashining Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi.

8-9-noyabr kunlari esa Toshkent shahrida Prezidentimiz raisligida Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT)ning o'n oltinchi sammiti bo'lib o'tishi, unda Ozarbayjon, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiyaning davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etishi kutilmoqda.

Sammitda IHT doirasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiyaviy va gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish hamda tuzilma faoliyatini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Davlatimiz rahbarining juda tig'iz kun tartibidan o'rin olgan bu kabi muhim tadbirlarda erishilgan kelishuvlar, IHT sammitidan kutilayotgan natijalar mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish, ayni maqsadda qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Binobarin, ushbu strategiya xalqimizning erkin va farovon yashashi, davlatimiz ravnaqi, yuksak maqsadlarimizni ro'yogga chiqarishda muhim dasturialamal hujjatdir. Unda har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlashga qaratilgan vazifalar belgilangan.

Xususan, strategiyada barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash bo'yicha belgilangan qator vazifalar, tashabbuslar mamlakatimizning iqtisodiy qudratini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Unda investitsiyaviy jozibadorlikni yanada yuksaltirish, eksport hajmini 2 barobar oshirib, 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingga 15 mingga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

O'zbekiston BMTning 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi dasturini amalga oshirishda majburiyatlarini to'liq bajarmoqda. Uni izchil amalga oshirish bo'yicha hukumatning "2030-yilgacha barqaror rivojlanish soha-

sida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Barqaror rivojlanish maqsadlarini mamlakat ehtiyojlariga moslashtirish uchun jiddiy intilishlar natijasi sifatida 2017-2021-yillar uchun Harakatlar strategiyasi samarasi va hozir amalga oshirilayotgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini ko'rsatish mumkin.

Taraqqiyot strategiyasi xalq farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyotni transformatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish, inson huquq va manfaatlarini ta'minlash va faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga bosqichmabosqich o'tishning huquqiy, institutsional va iqtisodiy asoslari shakllantirilgan. Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, bandlegini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, manzilli ijtimoiy himoya masalalari bevosita aholi yashash joylarida ko'rib chiqiladigan, boshqa xorijiy mamlakatlardan farq qiluvchi mahalla milliy modeli amalga oshirilmoqda.

"Ochiq budget" tizimi faol ishlab chiqilib, yangi "mahalla budgeti" tizimi amaliyotga joriy qilinishi natijasida aholi mahalliy budget mablag'larini aniq talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda taqsimlashda bevosita



ishtirok etyapti, shu orqali muammolarni mustaqil hal etmoqda.

Bugun O'zbekiston, butun jamiyatimiz, odamlarimiz hayoti tubdan o'zgaradi. Eng muhimi, har bir yurtdoshimiz ularni o'z hayotida sezmoqda. Mamlakatimiz tom ma'noda yangi O'zbekistonga aylanmoqda.

Mamlakatimiz aholisi yiliga 2 foiz o'smoqda. Prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib, 40 million nufusli mamlakat bo'lamiz. Bunday katta davlatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalqimizga munosib sharoit yaratish uchun iqtisodiyot ham, boshqaruv ham, ta'lim va tibbiyot ham yangicha bo'lishi, barcha sohalarda o'sish, rivojlanish ta'minlanishi kerak. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Albatta, odamlarni hayotdan rozi qilish uchun barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash lozim. Bunga erishilayapti ham. Masalan, xorijiy investitsiyalar hajmi 3 karra ko'payib, o'tgan yilning o'zida 10 milliard dollardan oshdi. Har bir mahallada 40-50 ta korxonaga faoliyat yuritmoqda, barcha tumanlarda eksport qiluvchi tadbirkorlar paydo bo'ldi, millionlab yangi ish o'rinlari yaratildi. Bir so'z bilan aytganda, tadbirkorlar sinfi shakllanib, jamiyatimizda haqiqiy kuch, islohotlar drayveriga aylandi. Natijada so'nggi yillarda yalpi ichki mahsulot hajmi 52 milliard dollardan 80 milliard dollarga yetdi. Aholining xarid qobiliyati va o'rtacha oylik ish haqi qariyb 2 barobar oshib, bugungi kunda 360 dollarni tashkil etmoqda.

Endi mavjud salohiyat asosida yanada yuqori marralar belgilanmoqda. Strategiyaga binoan, 2030-yilga borib, iqtisodiyotimizni 2 barobar oshirib, 160 milliard

Shu maqsadda xorijiy hamkorlar bilan umumiy qiymati 115 milliard dollarlik yirik loyihalar allaqachon boshlangan.

Jumladan, keyingi yillarda strategik megaloyihalar ishga tushiriladi. Xususan, Olmaliqda 3 ta mis boyitish fabrikasi va yangi mis eritish zavodi, Ohangaron misni qayta ishlash klasteri, Navoiy, Qo'ng'iro't va Qorako'lda yirik kimyo-polymer klasterlari, Toshkent va Navoiy viloyatlarida fosforit xomashyosidan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonasi, Tebinbuloq va G'allaorolda temir ishlab chiqarish majmualari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Natijada 2030-yilgacha yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo'lgan mis ishlab chiqarish hajmi 3,5 barobar, oltin — 1,5 karra, kumush — 3-marta, uran — 3 barobar oshiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston tarixida ilk bor alyuminiy, litiy, po'lat, grafit ishlab chiqarish boshlanadi. Bu xomashyolardan avtomobil, elektronika, "yashil energiya" qurilmalari, kimyo va polimer kabi yuzlab yangi mahsulotlarni ishlab chiqarsa bo'ladi. Bu — 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rni, degani. Prezidentimiz saylovoldi dasturida qayd etganidek, 4 ta nufuzli xorijiy kompaniya loyihalari faoliyati yo'lga qo'yilib, avtomobilsozlik sohasida haqiqiy raqobat paydo bo'ladi va ishlab chiqarish yillik hajmi hozirgi 350



dollarga yetkazish, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini hozirgi 2 ming 200 dollardan 4 ming dollarga yetkazish ko'zda

mingdan 1 million donaga yetkaziladi. Bunda yiliga 300 mingta elektromobil ishlab chiqariladi. Umuman, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmi 20 milliard dollardan 45 milliard dollarga yetkaziladi.

Sanoat va iqtisodiyotning kelajagi — eksport. So'nggi yillarda charm-poyabzal, to'qimachilik, oziq-ovqat, elektrotexnika, farmatsevtika yo'nalishlarida minglab yangi korxonalar ochildi. Natijada eksport hajmi 1,5 barobar ko'payib, 19 milliard dollardan oshdi. Tashqi bozorlarga chiqish xarajati yuqori ekanini inobatga olib, strategiyada ilgama asoslangan, yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish mo'ljallanayapti. Tayyor mahsulot bilan tashqi bozorlarga chiqish uchun Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatidagi ustuvor maqsadlardan. Ammo buning uchun, avvalo, korxonalarimiz ochiq va kuchli raqobatga tayyor bo'lishi kerak. Bunga ko'maklashish maqsadida yuqori qo'shilgan qiymatli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'llab-quvvatlash maqsadida Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etiladi va unga 1 milliard dollar ajratiladi.

Shuningdek, kelgusi yillarda 50 ta nufuzli xorijiy brend bilan maxsus eksport zonalarini tashkil qilish ko'zda tutilgan. Tadbirkorlarga "tayyor biznes" shaklida bino berish maqsadida sanoat ipotekasi tizimi to'liq yo'lga qo'yiladi. Har bir tumanda kamida mingta ish o'rni yaratadigan 2 tadan yangi sanoat zonalarini tashkil etiladi. IT xizmatlar eksporti 5 milliard dollarga olib chiqiladi. Natijada 2030-yilga qadar jami eksport hajmi 2 baro-



2024-yildan boshlab sanoatda "yashil sertifikat"lar bozori yaratiladi. Avtobuslar to'liq ekologik toza elektr yoki gaz yonilg'isiga o'tkaziladi. Barcha yangi uylar va asbob-uskunalar energiyani tejash bo'yicha talablar joriy etiladi. Iqtisodiyotda energiya samaradorligi 2 karra oshiriladi. Natijada 2030-yilga borib, 50 milliard kilovatt-soat "yashil" energiya ishlab chiqariladi. Yangi stansiyalar ishga tushishi bilan 10 ming kilometr magistral va 110 ming kilometr hududiy elektr tarmoqlari barpo qilinadi.

bar oshirilib, 45 milliard dollarga yetkaziladi.

Butun dunyoda "yashil" iqtisodiyotga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish kengayib bormoqda. O'zbekistonda ham investitsiyalarni jalb etish, yangi quvvatlarni barpo qilishga zo'r berilyapti. 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari 25 ming megavattga, ularning ulushini hozirgi 14 foizdan 40 foizga yetkazish maqsad qilingani fikrimizning yaqqol isbotidir.

2024-yildan boshlab sanoatda "yashil sertifikat"lar bozori yaratiladi. Avtobuslar to'liq ekologik toza elektr yoki gaz yonilg'isiga o'tkaziladi. Barcha yangi uylar va asbob-uskunalar energiyani tejash bo'yicha talablar joriy etiladi. Iqtisodiyotda energiya samaradorligi 2 karra oshiriladi. Natijada 2030-yilga borib, 50 milliard kilovatt-soat "yashil" energiya ishlab chiqariladi. Yangi stansiyalar ishga tushishi bilan 10 ming kilometr magistral va 110 ming kilometr hududiy elektr tarmoqlari barpo qilinadi.

Albatta, iqtisodiyot sohasidagi katta rejalar 2030-yilgacha 250 milliard dollar investitsiya talab etadi. Bundan 110 milliard dollarini xorijiy investitsiyalar hisobidan, 40 milliard dollarni davlat-xususiy sheriklik doirasida jalb etish ko'zda tutilgan.

Bank-moliya tizimida yillik kreditlash hajmini hozirgi 18 milliard dollardan 40 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Eng katta masalalardan biri kredit foizlarini tushirishdir. Bunda banklarni xususiy-lashtirish muhim o'rin tutadi. Qolaversa, mamlakatimizda xususiy sektor ulushini oshirish, monopol sohalarni bozor tamoyillariga o'tkazishni izchil davom ettirish siyosati yuritilmoqda. Xususan, so'nggi yetti yilda davlat monopoliyasida bo'lgan elektr generatsiyasi, issiqlik ta'minoti, kimyo, aviatsiya, ta'lim kabi sohalarga xususiy sektor jadal kirib keldi. Bu ishlarni davom ettirib, temir yo'l xizmatlari, avtomobil yo'llari qurish va boshqarish, gaz va elektr yetkazib berish xususiy sektorga o'tkaziladi. Irtigatsiya, chiqindini qayta ishlash, ijtimoiy obyektlarda energetika va issiqlik ta'minoti tizimini boshqarishga davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari keng joriy etiladi.

Umuman, kelgusi yillarda faqat magistral energiya va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog'liq sohalar davlat tasarrufida qoladi. Bu borada 2030-yilga qadar iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish asosiy maqsad bo'ladi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi asosiy darajamizni joriy etish natijasida paxta, g'alla hosildorligi 25-30 foiz, meva-sabzavot eksporti esa 2 barobar oshdi, sohaga 5 milliard dollardan ortiq xususiy investitsiya kiritildi. O'tgan ikki yilda 200 ming gektar unumdor yer aholiga ajratib berildi. Natijada 2 milliondan ziyod fuqaroning bandligi ta'minlandi.

Endi 2030-yilgacha bir gektardan olinadigan o'rta daromadni 3 ming dollardan 5 ming dollarga yetkazish asosiy maqsad qilingan. Jumladan, hosildorlikni paxta bo'yicha o'rta 45-50 sentnerga, g'alla bo'yicha 80-85 sentnerga oshirish, qo'shimcha 300 ming gektar maydonni o'zlashtirish va ular-

da intensiv bog' va uzumzorlar tashkil etish, mahalliy sabzavot, poliz, kartoshka urug'lik ta'minotini hozirgi 15 foizdan 50 foizga oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni 8 foizdan 25 foizga yetkazish, agrotarmoqda 2,5 million tonna quvvatga ega 100 ta yangi logistika markazini ishga tushirish ko'zda tutilmoqda. Natijada sohada eksport hajmini yiliga hozirgi 1,6 milliard dollardan 10 milliard dollarga yetkazish imkoniyati paydo bo'ladi. Umuman, agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiya jalb etish ko'zda tutilyapti.

Bu islohotlar va strategiyadan ko'zlangan asosiy maqsad — xalqimizni rozi qilish, "xalq xizmatidagi davlat"ni barpo etish. Bu vazifa taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biridir. Yangi O'zbekiston — huquqiy davlat. Ushbu qoida yangilangan Konstitutsiyamizda ham muhrib qo'yildi. Shunday ekan, qonun ustuvorligi, sud mustaqilligi va odilligini ta'minlash ustuvor vazifa deb belgilandi. Yani O'zbekistonda inson va biznesning himoyachisi faqat qonun va sud bo'ladi. Yangilangan Konstitutsiyada, inson va tadbirkorlar huquqlarini cheklashga faqat va faqat sud qarori asosida yo'l qo'yilishi mustahkamlandi. Bu, albatta, strategiyada belgilangan maqsad va vazifalar jiro-sini ta'minlashga xizmat qiladi.

Prezidentimiz har bir chiqishida yangi O'zbekistonni barpo etishda ikkita mustahkam ustunga tayanishimizni ta'kidlaydi. Birinchisi — bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi — ajdodlarimizning bozor merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyat.

Globalashuv sharoitida milliy o'zligimiz va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Shunday o'ta tahlikali vaziyatda bizni asraydigan, yanada kuchli qiladigan qudratli omil, avvalo, yurtimizdagi tinchlik, millatlar va dinlar o'rtasidagi totuvlikdir. Ana shunday bebaho boyligimizni ko'z qorachig'idek asrab, asl insoniy qadriyatlarimiz o'rni bo'lgan g'oyalarga egallab olishiga aslo yo'l qo'ymaymiz. Bu Vatani va xalq taqdiriga daxldor bo'lgan har bir yurtdoshimizning vijdon ishiga aylanishi kerak. Bugungi kunda xalqimiz orasida ayrim bilim va ma'rifati, madaniyati yetishmasligi, o'z ustida ishlanmasligi tufayli zamondan orqada qolayotganlarga ko'zga tashlanmoqda va bu taraqqiyotimiz yo'lida katta ta'sirga aylanmoqda. Jadid bobolarimiz bunday ilatni "jaholat" deb atagan va unga qarshi ma'rifat bilan mardona kurashgan. Bu yo'lida ilm-fan, ta'lim va tarbiyani o'z faoliyati uchun dasturlamal qilib olgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan amaliy ishlar jadidchilik harakatining asosiy g'oya va maqsadlari bilan uyg'un va hamohang ekanini yaqqol ko'rish mumkin. Shu sababli biz tariximiz, xususan, ma'rifatparvar ajdodlarimiz merosini chuqur o'rganib, ulardan bugungi shiddatli zamon uchun ibratli xulosalar chiqarib yashashimiz zarur. Ana shunday bilim va ma'rifat asosida maktab, texnikum va oliygohlarda o'qiyotgan yoshlarni tarbiyalashimiz kerak. Mana shu ikki tayanch ustun orqali mamlakatimizning rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishiga hissa qo'shishimiz mumkin.

MUNOSABAT

Tili, dini bir, tarixi, madaniyati mushtarak bo'lgan o'zbek va qozoq xalqlari do'stligi uzoq o'timishga borib taqaladi. Umumiy tariximiz, madaniy va ma'naviy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz bizni birlashtirib turadi. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar xalqlarimizning tarixan yaqinligi, ikki tomonlama siyosiy va iqtisodiy manfaatlar, iqtisodiyot va boshqa sohalarida tobora mustahkamlanib borayotgan ko'p qirrali o'zaro manfaatli aloqalar asosiga qurilgan. Davlatlarimiz mintaqaviy va umumbashariy xavfsizlikka, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga aloqador ko'pgina masalalar yuzasidan o'xshash nuqtayi nazarga ega.

Aktam HAITOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari

O'zaro aloqalar so'nggi yillarda ikki davlat rahbarlarining yuksak siyosiy irodasi bilan sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi yaxshi qo'shniçilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlanmoqda.

Faol siyosiy muloqot tufayli barcha sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishildi, keng ko'lami hamkorlik jadal sur'at bilan rivojlanib bormoqda. Mustaqil taraqqiyot yo'lini bir davrda boshlagan ikki xalq iqtisodiyotni qayta tiklash va rivojlantirish yo'lida bir-biriga yelkadosh bo'lib kelmogda. Buni keyingi yillarda iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida qo'shma korxon va loyihalarimiz soni 6 barobar oshib, savdo-iqtisodiy hamkorlik kuchayayotgani misolida ham ko'rishimiz mumkin.

So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi parlamentlararo muloqot ancha faollashdi. Tomonlar qonun ijodkorligi, jumladan, xalqaro parlament tuzilmalari doirasidagi tajribalarni o'rganish maqsadida muntazam ravishda delegatsiyalarning o'zaro tashriflarini amalga oshirmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 2-3-noyabr kunlari Qozog'iston Respublikasiga amaliy tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi darajaga olib chiqishda muhim bosqich bo'ldi.

Prezidentimiz Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlari kengashining Ostona shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi.



Turkiy davlatlar tashkiloti tobora davlatlararo muhim tuzilmaga aylanmoqda. Tashkilot qo'shma madaniy va iqtisodiy loyihalarni taklif etishga tayyor boshqqa davlatlar uchun ham jozibador bo'lib bormoqda. Zero, mintaqaviy savdo munosabatlari va investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish, har tomonlama va muvozanatlashgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga intilish, fan, texnika, ta'lim va madaniyat sohalarida o'zaro hamkorlikni kengaytirish TDTning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Tashkilotning Samarqand sammiti bu vazifalarni bajarishga ulkan hissa qo'shdi. O'tgan davr mobaynida imzolangan muhim hujjatlar izchil amalga oshirilmogda. O'zbekiston tashkilotning barcha a'zolari bilan strategik hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'ydi.



TARIXIY MUSHTARAKLIK YO'LIDA BIRDAMLIK DUNYOSI KO'Z OCHMOQDA

Mamlakatimiz ushbu xalqaro tuzilmaning munosib a'zosiya aylandi. Xususan, O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga qo'shilganidan buyon Shavkat Mirziyoyev tomonidan a'zo va kuzatuvchi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha ko'plab tashabbus va takliflar ilgari surildi.

O'zbekiston raisligi davrida turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan yuzdan ortiq turli tadbir o'tkazildi, muhim tashabbuslar ilgari surildi, yangi tuzilmalar tashkil etildi, qator nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin sheriklik aloqalari o'rnatildi.

Prezidentimiz Ostona sammitidagi nutqida ilgari surgan muhim tashabbuslar xalqaro ijtimoiy-siyosiy va ekspert doiralari vakillari tomonidan yuksak baholanmogda.

Zero, ushbu sammit delegatsiya rahbarlariga xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashish imkonini berdi. Kun tartibiga muvofiq, TDT doirasidagi ko'p qirrali munosabatlar bugungi holati va istiqbollari, amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonada tili, dini va yuraklari bir-biriga chambarchas bog'langan turkiy xalqlarning ovozi dunyo bo'ylab yanada baland, yanada kuchliroq yangrayotganini ta'kidladi. Tashkilot bugungi kunda shakllanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro institutlar tizimida o'ziga xos muhim o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Shavkat Mirziyoyev qadimiy turk davlati asoschilaridan biri Bilga xoqonning quyidagi da'vatini keltirdi: "Ey turkiy elim, o'zligingga qayt, o'zingni angla — yanada

Shu munosabat bilan O'zbekiston yetakchisi tomonlarni zudlik bilan harbiy harakatlarga barham berib, o't ochishni to'xtatishga, gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga



Global logistika zanjirlari va transport yo'laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish masalalari dolzarb ekanini ta'kidlandi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari O'rta koridor salohiyatini kengaytirish, qo'shimcha ko'p tarmoqli yo'nalishlarni, jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga mamlakatlarimiz orqali o'tadigan yo'laklarni rivojlantirish hamda transport xizmatlarini raqamlashtirish chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatladi.

yuksalgaysan!". Shu bilan birga, davlatimiz rahbari global xavfsizlikni ta'minlashda yangi muammolar yuzaga kelayotgani, xalqaro huquq me'yorlaridan chekinish holatlari ko'payib borayotganini ko'rsatib o'tdi.

chaqirdi. Falastin — Isroil muammosini BMT rezolyutsiyalariga muvofiq "ikki xalq uchun ikki davlat" tamoyili asosida hal etish zarurligi borasida O'zbekistonning pozitsiyasi qat'iy ekanini bildirildi.

Falastin — Isroil mojarosi keyingi paytda xavfli tus olgani jiddiy xavotirga soylayotgani qayd etildi. Qurolli to'qnashuvlar oqibatida tinç aholi, ayniqsa, keksalar, ayollar va bolalar orasida qurbonlar va jarohat olganlar soni keskin ortib, nizoning keng yoyilib ketish xavfi kuchaymogda.

Sammit doirasida Prezidentimiz ishtirokchilar e'tiborini ming yillar davomida tarixi va taqdiri turkiy elatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'p millatli jafokash Afg'oniston xalqiga qaratdi. Mamlakatimiz yetakchisi afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytirmaslik, bir yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal

GENDER TENGLIK



XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH: YURTIMIZ VA JAHON TAJRIBASI

Ozoda PARIPOYEVA, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi



Jidda shahrida "Islomda ayollar" mavzusida xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimizdan ham yetuk olimlar va mutaxassislardan iborat delegatsiya ishtirok etdi. Tadbirida so'zga chiqqan o'zbekistonlik olimlar va ekspertlar yurtimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar, erishilayotgan natijalar, istiqboldagi rejarlar xususida so'z yuritdi.

Muqaddas dinimizda ayollar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, xotin-qizlarning o'ldirilishi, jamiyatda va umuman, hayotda munosib o'ringa ega ekanini bayon qilingan. Ushbu yuksak e'tiborni Qur'oni karimdagii bir nechta suraning ayollarga bag'ishlangani, ularda ayollar masalasi ko'tarilganida ham ko'rish mumkin.

Bu ezgu qadriyatlar asrlar davomida ajdodlarimizning hayot tarzidan ham muhim o'rin egallagan, azaldan ayol zoti yuksak darajada e'zozlangan. O'zbek ayollari qadim zamonlardan buyon o'zaro bilan bir qatorda davlat va jamiyat hayotining turli yo'nalishlarida munosib o'rin tutib kelgan. Tarixda davlat boshqaruvi, harbiy ishi, yurt himoyasi, mulkchilik, qurilish, ishbiaronlik, homiylik, ta'lim-tarbiya, adabiyot kabi sohalarida o'zbek ayollari jasorat va fidoyilik ko'rsatgan. O'zbek onalari deganda dunyo tamadduniga munosib hissa

qo'shgan Abu Ali ibn Sinoning onasi Sitobonaba, Imom Buxoriyning onasi Fotima ona, Bahouddin Naqshbandning onasi Bibi Orifabegim, Alisher Navoiyning onasi Salimabonu tarbiyasini tasavvur qilamiz.

Shu o'rinda Prezidentimizning "Agar biz bo'lg'usi xorazmiylar, farg'oniyalar, beruniylar, buxoriylar, ulug'beklar, navoiylarni tarbiyalamoqchi ekanmiz, birinchi navbatda, har tomonlama sog'lom, yuksak bilimli va ma'naviyatli onalarni tarbiyalashimiz zarur", degan so'zlari bugungi kunda jamiyatimizda xotin-qizlarga mehrii munosabatni yaqqol namoyon etadi.

Bu borada keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar tahlil etilganda, jamiyatimizda ayollarga munosabat nechog'liq yuksak ekanini yanada oydinlashadi. So'nggi yillarda xotin-qizlar manfaatlariga doir, xalqaro standartlar asosida 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. Joriy yilda yangi tahrirdagi

Konstitutsiyamizda ham xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi mustahkamlab qo'yildi.

2022-2026-yillarda mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur hayotga izchil tatbiq etib kelinmogda. Ayollarning davlat va jamoat ishlari hamda qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki kengaymogda.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy faolligini oshirish, jamoat yoki siyosiy tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va tuman hokimi, vazir, senator, deputat kabi mas'uliyatli lavozimlarga ayollarning tayinlanishi ularga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor namunasidir. Bugungi kunda boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 35 foizga yetdi.

Davlat tuzilmalarida xizmat qilish uchun ijtimoiy, siyosiy faol ayollardan kadrlar zaxirasi shakllantirilgan. Xususan, Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha alohida "Rahbar ayollar maktabi" o'quv kurslari tashkil etilib, har yili 100 nafar faol xotin-qiz o'qitilaypti.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turli sohalarida o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yogga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish, rag'batlantirish borasida maxsus davlat mukofoti (Zulfiya nomidagi davlat mukofoti) ta'sis etilgan bo'lib, mazkur mukofot bilan shu kunga qadar 424 nafar xotin-qiz taqdirlangan.

Ayollar bandligini ta'minlash, tadbirkorligini rivojlantirishga doimiy e'tibor berilmogda. Har bir hududda tuzilgan Xotin-qizlar tadbirkorligi markazlari ko'magida



tadbirkor xotin-qizlar soni ortib bormogda. Ular uchun hukumat maxsus jam'armasida va tijorat banklarida imtiyozli kredit liniyalari ochilgan bo'lib, oxirgi 2,5 yil mobaynida 496 mingdan ziyod xotin-qizga tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 9,7 trillion so'm kredit ajratildi. 1500 ga yaqin mahallada xotin-qizlar bandligini ta'minlash va salomatlik markazlari tashkil etilgan bo'lib, mazkur markazlar orqali ular o'zi yashayotgan mahallada kasb-hunar o'rganish, hunarmandchilik va kasanachilikka jalb etib kelinmogda.

etish maqsadida "Ayollar daftari" tizimi joriy qilindi. Ushbu tizim orqali "Ijtimoiy davlat" tamoyili mezonlariga mos ravishda milliondan ortiq ehtiyojmand xotin-qizning ijtimoiy-moliyaviy ahvoli yaxshilanib, o'zini tutib olishiga ko'maklashilmogda.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'raonlikka barham berish maqsadida tazyiq va zo'raonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni davlat himoyasiga olish, himoya orderi berish mexanizmi yaratilgan. Milliy qonunchilikka o'ldirilgan zo'raonlik alohida jinoyat sifatida kiritilib, jazo choralarini kuchaytirilgan. Tazyiq va zo'raonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va jamiyatga moslashtirish maqsadida maxsus markazlar tashkil etilgan. Ularni kafillik asosida muddatidan oldin jazodan ozod etish tizimi ishlab turibdi.

Shu taxlit mamlakatimizda "Inson huquqlari hamma narsadan ustun" degan tamoyil asosida ayollarimizning mavqegini yuksaltirish borasidagi keng ko'lami is-

etishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqirdi.

Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik qo'shma investitsiya loyihalarni amalga oshirish maqsadida Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish ishlarini faollashtirish muhimligi qayd qilinib, ushbu moliya muassasasini Toshkent shahrida joylashtirish taklifi bildirildi.

Turkiy davlatlar savdo hamkorligi tadqiqot markazini tashkil etish bo'yicha boshlangan amaliy ishlarni to'liq ma'qullab, O'zbekiston Prezidenti markaz imkoniyatlaridan savdo to'siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko'paytirish bo'yicha yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirishda unumli foydalanish zarurligiga e'tibor qaratdi.

Global logistika zanjirlari va transport yo'laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish masalalari dolzarb ekanini ta'kidlandi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari O'rta koridor salohiyatini kengaytirish, qo'shimcha ko'p tarmoqli yo'nalishlarni, jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga mamlakatlarimiz orqali o'tadigan yo'laklarni rivojlantirish hamda transport xizmatlarini raqamlashtirish chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatladi.

Tashkilotning temir yo'l idoralari kengashini ta'sis etish va bu tuzilma direksiyasini O'zbekistonda joylashtirish taklifi ham nafaqat TDTga a'zo davlatlar, balki mintaqadan tashqari mamlakatlarining manfaatlarini ta'minlovchi global transport va logistika markaziga aylantirish rejarlariga juda mosdir.

Sammit doirasida Turkiy dunyo xartiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilgari surilgan tashabbus ham eng muhim chaqiriqlardan biri bo'ldi, desak mubolag'a emas. Aytish joizki, barcha turkiy xalqlarning birliigi va jipsligi, buyuk o'tmishi, boy madaniyati va qadriyatlarini aks ettiruvchi mazkur hujjatning tayyorlanishi kelajak avlodlar uchun tom ma'noda muhim qo'shma aylandi.

Bir so'z bilan aytganda, Ostona sammiti TDT mamlakatlarining o'zaro hurmat, ishonch va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlash, birgalikda turli to'siqlarni samarali yengib o'tishga tayyor ekanini yaqqol ko'rsatdi. Uning yakunida TDT doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan bitim va qarorlar, shubhasiz, turkiy tili davlatlar o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga, pironvardiga qardosh xalqlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

lohotlar jadallik bilan davom etyapti. Ayni paytda bu boradagi ishlarda xalqaro hamkorlikning ham o'rni muhimdir. Shu ma'noda "Islomda ayollar" mavzusidagi xalqaro anjumanida dolzarb masalalar ilgari surildi. Ularni hayotga tatbiq etishda barchamiz yakdil va hamnafas bo'lishimiz, birgalikdagi sa'y-harakatlarimizni yanada kuchaytirishimiz zarur.

Joriy yil 22-23-noyabr kunlari Samarqand shahrida Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar ishtirokida "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha O'zbekiston va Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar tajribasi" mavzusida o'tkaziladigan xalqaro ayollar forumi bu borada muhim qadam bo'ladi. Forumning asosiy maqsadi oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarning jamiyat hayoti va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish, huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha IHT davlatlarining o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish va tajriba almashishdir.

Mazkur tadbirida jamiyatda adolatni targ'ib qilish va ayollar imkoniyatini kengaytirish bo'yicha huquqiy islohot va siyosiy tashabbuslar bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilishi kutilmogda. Ayollarning maqomi va huquqi, ta'lim va mehnat imkoniyatini kengaytirish istiqbolii, zamonaviy jamiyatda xotin-qizlar bilan bog'liq turli masalalar muhokama qilinadi.

Shuningdek, IHTga a'zo davlatlarda oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash borasida erishilgan yutuqlar va tashabbuslar tahlil etiladi. Gender siyosatining turli sohalarini bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlikning istiqbolii yo'nalishlarini belgilash, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda xotin-qizlar ishtirokini kengaytirish masalasi ham kun tartibiga ko'tariladi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi bunday ishlar izchil ravishda davom etadi. Bu borada "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham tegishli chora-tadbirlar belgilangan. Ularning ro'yogga chiqishi o'zaro farovonligi, xotin-qizlarning baxtu saodati, iqboli yanada yuksalishiga zamin yaratadi. Ayollarimizning baxti esa jamiyatimizning ulkan yutug'i bo'ladi.

INSONNI QADRLASH YANGI O'ZBEKISTON SIYOSATINING QALBIGA AYLANDI

Qahramon QURONBOYEV, Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

Бошланиши 1-бетда

Bir so'z bilan aytganda, 25 mingdan ortiq mehnat muhojiri va xorijda tahsil olayotgan talaba-yosh bilan yuzma-yuz muloqotlar o'tkazildi. Og'ir vaziyatga tushib qolgan yoki muammolarini hal etishga qiynalayotgan 2 mingdan ziyod hamyurtimizga to'g'ridan-to'g'ri amaliy yordam ko'rsatilib, masalalari joriy hal etib berildi. Yana 5,7 mingta murojaatni tegishli tartibda qanoatlantirish uchun alohida "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Safar chog'ida Rossiyada mehnat qilayotgan boshqa mamlakatlar fuqarolarining "Vatandoshlarimizdan xabar olgani keldingizmi?" degan havasli so'zlariga ko'p bor guvoh bo'ldik.

Ha, bu juda muhim safar bo'ldi. O'zbekistonning o'z fuqarolarini qadrlash, himoyalash, muammolarini hal qilishga qaratilgan sa'y-harakatlari orqali millat, Vatani qadri ham ulug'landi. Nafaqat mustaqil O'zbekiston tarixida, umuman, Markaziy Osiyoda mehnat muhojirlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kuzatilmagan bunday keng ko'lami o'rganish va ko'maklashish choralarini siyosiy iroda mahsulidir, desak to'g'ri bo'ladi.

Davlatimiz rahbari xalqimiz bilan uchrashuvlarining birida bunday degan edi: "Musofir yurtda, turli qiyinchilik va mashaqqatlariga chidab, halol mehnat qilib non topish, albatta, oson emas. Biz chet ellarda daromad bilan birga tajriba va malaka ham orttirayotgan ana shunday yurtdoshlarimizga rahmat aytishimiz kerak. Ular bizning farzandlarimiz, aka-uka, jigarlarimizdir."

Vatandoshlarimizga dunyoning istalgan nuqtasidan mamlakatimizdagi davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini yaratib beramiz. Xorijda murakkab vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlarimizga huquqiy va boshqa yordamlar ko'rsatish ko'laminii kengaytiramiz.

Bir so'z bilan aytganda, biz xorijdagi O'zbekiston fuqarolari o'z muammolari bilan yolg'iz qolib ketishlariga yo'l qo'ymaymiz". Bu safar davlatimiz rahbari aytgan ana shu so'zlarning amaliy ifodasi bo'ldi.



Prezidentimizning 2019-yil 20-avgustdagi "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolari ni himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralarini to'g'risida"gi farmoniga asosan, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari uchun ishonchli, shu jumladan, uy-joy va maishiy sharoitlarni yaxshilash, moliyaviy yordam, hayoti va sog'lig'ini himoya qilish masalalarida jittimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlar belgilab berildi.

Farmonga muvofiq, O'zbekistonning xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolari huquqlarini himoya qilish va xalqaro iqtisodiy hamkorlik masalalarini departamenti tashkil etilib, mehnat migrantlarining ishlash va yashash sharoitlari bilan tanishish, ularga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida vakolatli vazirlik va idoralari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbariyati va vakillaridan tarkib topgan delegatsiyalarning xorijiy davlatlarga, eng avvalo, Rossiyaga tizimli ravishda safar qilishi amaliyoti joriy etilishi belgilandi.

Zero, mamlakatimiz Konstitutsiyasida O'zbekiston o'z hududida ham, uning tashqarisida ham fuqarolarini himoya qilishi va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlashi, davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qilishi belgilab qo'yilgan.

Vatan uchun farzandlari qayerda bo'lsa ham o'z dilbandi hisoblanadi. Hamisha ular haqida o'ylaydi, yutuqlaridan entikadi, kasal bo'lsa, yordamga shoshadi, boshiga biror savdo tushsa, tayanch va suyanch bo'ladi. Safar davomida ko'plab yurtdoshlarimiz ana shu haqiqatni yana bir bor yurakdan o'tkazdi.

"Davlat — inson uchun". Xalqchil siyosat xalqqa xizmat qilmoqda

Bugungi kunda mamlakatimizda, avvalo, inson, uning haq-huquqlari va baxtu saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadiga aylandi. Yangi jamiyat qurilishi ana shu g'oyaga tayanmoqda. Bu insonparvar g'oyaga asosan, hech kim e'tibordan chetda qolmaydi.

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga binoan, xorijda ishlash istagidagi fuqarolarni kasb-hunariga va chet tillarga o'qitish, ularga kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlar berish, mehnat migrantlarini moliyaviy va jittimoiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ularning hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash, migratsiyadan qaytgan shaxslarni reintegratsiya qilish, bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarning haq-huquqlarini ta'minlashda manzilli ko'mak ko'rsatish ishlarini ham tizimli tashkil etish yo'lga qo'yilmoqda.

Respublika ishchi guruhi a'zolari o'zbekistonlik mehnat muhojirlari ko'pchilikni tashkil qiladigan Novosibirsk, Tomsk, Samara, Sankt-Peterburg va Moskva shaharlarida yosh migrantlar, ularning ish beruvchilari bo'lgan korxonaga va tashkilotlar rahbarlari, rossiyalik tadbirkorlar, tizim mutasaddilari, o'zbek diasporasi vakillari, O'zbekiston elchixonasi va vakolatxonalarini mas'ullari bilan ham uchrashuvlar o'tkazdi.

O'zbekistonga qaytish va o'z ona vatandagi mehnat qilish istagida bo'lgan bir qancha yoshlarga amaliy yordam ko'rsatildi. Masalan, Novosibirsk shahridagi "Xilok" dehqon bozori hududidagi ovqatlanish shoxobchasida bir yildan buyon ofitsiant bo'lib ishlashgan sirdaryolik Dilafoz Usonova hamda uning maktab yoshidagi 3 qizi (Marjona — 2009-yil, Durдона — 2010-yil, Zumrad — 2012-yil) ta'limdan uzilib, onasiga ko'maklashayotganiga guvoh bo'ldik. Yuzma-yuz suhbatda ularning o'z Vatani qadrlash, tinch va xotirjam mehnat qilish, yashash istiqbolini kuchaytirishni ta'kidladik. Ayniqsa, uch qizlarning tengdoshlari kabi maktabda bilim olish orzusi bizni juda ta'sirlantirdi. Shu yerning o'zida ularning O'zbekistonga qaytishi uchun aviachipta olib berilib, Sirdaryo viloyati hokimligi homiylikda turar joy ajratish va qizlarni maktabga joylashtirish masalasi hal qilindi.

Men oilam, farzandlarim nomidan chin dildan rahmat aytmoqchiman. Taqdir tufayli voyaga yetayotgan uch qizim bilan Rossiyaning olis hududlarida mehnat qilayotgandim. Farzandlarimning o'qishdan qolib ketishi, taqdirini o'ylab juda sig'ildardim. Davlatimiz rahbarining insonparvar siyosatini O'zbekistonda hamma his qilayotgan bo'lsa, men olis Rossiyada turib his qildim. Uyguliy-joyli bo'ldim. O'zbekistonda Vatanda tug'ilganimdan, shunday davlatim borligidan faxrlanam. Yaratganga shukrona aytaman, — dedi yurtdoshimiz.

Qarshi shahridagi Aralovul mahallasida yashovchi Shahzod Saharov (2001-yilda tug'ilgan) Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialida 3-bosqichda ta'lim olishini, biroq kontrakt pulini to'lay olmagan sababli Rossiyaga ishlash uchun kelganini bildirdi. Murojaat yuzasidan Qashqadaryo viloyati hokimligi tomonidan Shahzodning oilaviy holati o'rganilib, shartnoma mablag'i to'landi va yurtga qaytishi hamda o'qishni davom ettirishi uchun aviachipta olib berildi.

Tolyatti shahrida dehqon va xo'jalik bozorlarida faoliyat yuritayotgan 120 nafar o'zbekistonlik sotuvchi va xizmat ko'rsatuvchi mehnat muhojiri bilan suhbatda bozor hududida ofitsiant bo'lib ishlayotgan angronlik Sevvara Rajabova ham O'zbekistonda yaxshi ish topsa, Vatanga qaytmochi ekanini bildirdi. Komissiya shu joyning o'zida mamlakatimizdagi mahalliy mutasaddilar bilan bog'lanib, masalani hal etdi. Sevvara Angren kon boshqarmasida ish bilan ta'minlandi.

Vataniga qaytish istagini bildirgan Dilafoz, Shahzod va Sevvara kabi yuzlab yoshlarimizga ko'mak berildi va ularning istaklari amalga oshirildi. Yana 3000 dan ziyod murojaatchining O'zbekistondagi tashkilot va korxonalaridan ish topib berish, turli ko'rinishdagi yordamlar ko'rsatish, o'z tadbirkorligini boshlash uchun kredit ajratish kabi murojaatlarini o'z ichiga olgan "Yo'l xaritalari" ishlab chiqildi.

Kishi siylangan, qadrlangan joyida azizdir

Buyuk bobomiz Alisher Navoiyning "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami", degan hikmatli so'zlari nafaqat biz, balki dunyo uchun xalqchil siyosat yuritishda dasturlamal bo'lishga loyiqdir, desak haqiqat.

Inson o'z yurtida yo'q taqdir taqozosi bilan o'zga yurtida mehnat qilar ekan, avvalo, qadrga ehtiyoj sezadi. Inson qadrlangan joyda muhit ham, sifat va baraka ham boshqacha bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasi tizimi ham to'liq isloh qilinmoqda. Xorijga ishlash uchun borayotgan aholimizni kasbga va chet tillarga o'qitish, ularga xorijiy davlatlarda kafolatlarni jittimoiy va tibbiy yordamlar ko'rsatish kabi zarur shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq ishlar ko'lami kengaytirilmoqda.

Hamyurtlarimiz ish sharoitini o'rganish, mehnat huquqlarini ta'minlashga ko'maklashish delegatsiyaning bosh maqsadlaridan biri bo'ldi. Shu bois, guruhimiz bu borada keng ko'lami sa'y-harakatlar olib borib, Rossiyadagi hamkor davlat mutasaddilari bilan salmoqli kelishuvlarga erishdi.

Jumladan, Novosibirsk shahridagi Savdo-sanoat palatasida yirik tadbirkorlar hamda ish beruvchilar bilan uchrashuv o'tkazildi. Tadbirda Novosibirskdan 32 nafar yirik tadbirkor, 17 ta sanoat korxonasi rahbarlari ishtirok etdi. Mahalliy ish beruvchilar tomonidan turli kasblar, ayniqsa, payvandchilik va qurilish sohasida 2000 dan ortiq mutaxassisga ehtiyoj mavjudligi bildirildi.

Muzokaralar yekunida "Krokmart" kompaniyasi mablag'lari hisobidan Qashqadaryo viloyatida uy-ro'zgor buyumlari ishlab chiqarish korxonasi tashkil etish, stol tennis va bilyard stollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan MDHdagi eng yirik "Fabrika start" korxonasi filialini Namangan viloyatida ochish va faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha kelishib olindi.

Samara shahridagi 15 ta yirik ish beruvchi korxonaga taklif etgan 1200 dan ortiq mutaxassis ish o'rni bo'yicha kadrlarga ehtiyoj shakllantirildi, shuningdek, "Moy biznes" mintaqaviy markazi hamda "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi o'rtasida yoshlar tadbirkorligi yo'nalishida hamkorlik yo'lga qo'yiladigan bo'ldi.

Ishchi guruh Rossiyaning bandlik siyosatidagi ustuvorliklar va amaldagi mehnat qonunchiligi talablari asosida o'zbekistonlik yoshlarning yashash sharoitlarini osonlashtirish maqsadida qator ishlar qildi. Xususan, Tomsk shahridagi "O'zbekim" MCHJda faoliyat yuritayotgan 75 hamyurtimizning yashash, ovqatlanish va yotoqxon sharoitlari o'rganildi, muammolarini hal etishga ko'maklashildi.

Bu yerda qo'shimcha mutaxassislariga ehtiyoj borligi aniqlanib, korxonaga tashabbus bilan Farg'ona viloyati hokimligi xorijiy davlatlarda ishlash istagini bildirgan 100 nafar yoshning ro'yatini shakllantirib, 2023-yilning dekabr oyiga qadar zarur kasb-hunar va rus tili kurslariga o'qitish hamda qonuniy migratsiya asosida ishga yuborishga kelishildi.



va Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Yoshlar ishlari agentligi mablag'lari hisobidan 10 mingta badiiy adabiyot va rus tilini tekzor o'rganishga mo'ljallangan so'zlashuv kitoblari yetkazib berish choralarini ko'rilmoqda.

Samara viloyati rahbariyati bilan o'tkazilgan uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasida yoshlar masalalari bo'yicha ko'p qirrali hamkorlik, jumladan, yoshlar siyosati, turizm, bandlik, tadbirkorlik va ta'lim sohasidagi qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari atroficha ko'rib chiqildi. Xususan, 2023-yildan boshlab Tomsk va Samara shaharlarida mahalliy yirik ish beruvchi korxonalar ishtirokida o'zbekistonlik yoshlar uchun mehnat yarmarkalarini muntazam o'tkazib borishga kelishib olindi.

Yoshlar masalalarida o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida qabul qilingan harakatlar rejasiga muvofiq, Samara viloyatining aviatsiya va kosmonavtika sohasidagi malakali mutaxassislar ishtirokida 2024-yilda Samarqand shahrida O'zbekiston — Rossiya yosh mutaxassislar forumini tashkil etish, Samara va Toshkent shaharlarida o'zbekistonlik va rossiyalik yosh tadbirkorlar ishtirokida biznes marafon o'tkazish, Namangan va Samara viloyatlarida yoshlarni mavjud ehtiyojlari asosida zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatishga qaratilgan yoshlar mehnat oromogini tashkil etish bo'yicha kelishuvlar ham diqqatga molikdir.

O'zbekistonning Sankt-Peterburg shahridagi bosh konsullixonasida yirik korxonalar vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi va o'zbekistonlik yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalarida hamkorlik rejalarini muhokama qilindi.

Mahalliy ish beruvchilar tomonidan turli kasblar, ayniqsa, quruvchi, yetkazib beruvchi, baliqni qayta ishlash, ombor ishlari kasblari bo'yicha 3500 ta yangi ish o'rni yaratish maqsadida bo'lgan fuqarolarni natijasida ularga tartibli mehnat migratsiya asosida ishchilar yuborishga kelishib olindi.

Rossiya Ichki ishlar vazirligining Leningrad viloyati va Sankt-Peterburg shahri bo'yicha Bosh boshqarmasining migratsiya va xalqaro hamkorlik, huquqiy masalalar boshqarmalari rahbarlari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar, ayniqsa, Rossiyada mehnat qilayotgan yoshlarimiz uchun samarali kelishuvlarga bo'y bo'ldi, deyish mumkin. O'zbekistonning xorijda vaqtinchalik mehnat qilayotgan fuqarolari uchun mehnat migratsiyasiga oid roliklar va ish jarayonida foydalaniladigan xorijiy so'zlashuv uslubini o'rgatishga oid darsliklar yaratish, Rossiyada ishlash maqsadida bo'lgan fuqarolarni kasb-hunar va rus tiliga o'rgatishni qat'iy nazoratga olish kabi chora-tadbirlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Rossiyada yashayotgan fuqarolarimiz duch kelayotgan ko'plab masalalar yuzasidan federal qonunchilik talablarini o'zbek tilida tushuntirib berishga qaratilgan targ'ibot materiallarini tayyorlash va migratsiya markazlariga tarqatish kabilarni o'z ichiga olgan hamkorlik dasturi qabul qilindi.

Do'stlik ko'priklari — ishonch ko'priklari

Har qanday ishonch ko'prigi, avvalo, do'stona munosabatlar asosida shakllanadi. Safar davomida Rossiya va O'zbekiston yoshlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash, yoshlar bilan ishlash borasida tajriba almashish, ta'lim-tarbiya,

madaniy-ma'rifiy sohalarda hamkorlikda yangi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, birgalikda madaniy almashuvlarni tashkil qilish, yoshlar forumlarini o'tkazish kabi mavzularda ham muloqotlar bo'ldi. Rossiyada ta'lim olayotgan o'zbekistonlik talabalar, vatandoshlar jamiyatlari bilan uchrashuvlar tashkil qilindi.

Xususan, Novosibirsk va Farg'ona, Tomsk va Qarshi shaharlarini "Yoshlar do'stligi" shaharlari deb e'lon qilish, madaniyat, turizm, tadbirkorlik, ta'lim sohasidagi qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari atroficha ko'rib chiqildi.

Yoshlar masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan harakatlar rejasiga muvofiq, ta'lim sohasidagi qo'shma loyihalarni amalga oshirishga muammo va takliflar asosida "Yo'l xaritasi", boshqa loyihalar ishlab chiqildi.

Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir bo'limi rahbari Sergey Sverchkov va Olmlir uy rahbari Galina Lazovaya bilan uchrashuvda ikki mamlakat yoshlari o'rtasida fan, ta'lim, madaniyat va san'at yo'nalishlarida hamkorlikni revojlantirish borasida kelishuvga erishildi.

Jumladan, 2024-yil mart oyida Novosibirsk viloyatida ikki davlat yosh olimlari forumi tashkil etiladigan, Novosibirsk va Farg'ona milliy madaniyat markazlari tomonidan yoshlar o'rtasida madaniyat, san'at, kitobxonlik sohaslarini keng targ'ib qilishga qaratilgan qo'shma loyihalar amalga oshiriladigan bo'ldi.

Xorijdagi yoshlar, ayniqsa, talabalar bilan ishlashda O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda o'zbekistonlik yoshlar ko'pchilikni tashkil qiladigan 10 dan ortiq mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan assotsiatsiya vakillari respublika ishchi guruhi ko'magida qator yangi kelishuvlarga erishdi. Xususan, Sankt-Peterburg yoshlar siyosati va jamoat tashkilotlari, Samara viloyati oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi, Rossiya yoshlar ittifoqining Samara yoshlar hududiy jamoatchilik bo'limi, "Rossiya talabalar jamoalari" umumrosiya yoshlar jamoat tashkilotining hududiy bo'limi o'rtasida hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Tomsk viloyatida esa o'zbekistonlik yoshlar bilan ishlash, yosh olimlar va malakali mutaxassislarni tayyorlashda hamkorlik qilish, ular bilan doimiy aloqa o'rnatish uchun O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi koordinatlarini tayinlash maqsadida viloyatdagi 6 ta oliy ta'lim muassasasi prorektorlari bilan uchrashuv o'tkazildi.

O'zbekistonlik talaba-yoshlar bilan uchrashuvlar davomida ta'limni mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish, to'lov-kontrakt, ta'limni tugatayotgan yoshlarning munosib ish o'rnlarga joylashishi va boshqa masalalar ko'rib chiqildi.

Respublika ishchi guruhi tashrif doirasida o'zbek diasporasi vakillari bilan ham uchrashib, jamiyatimiz hamda vatandoshlarimizning ijobiy imjini yaratish borasida hamkorlik qilish bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazildi. Xususan, Tomsk viloyatidagi o'zbek diasporasi vakillari bilan uchrashuvda vatandoshlar bilan ishlash bo'yicha "Tomsk tajribasi"ni yaratish masalalari muhokama qilindi. Sankt-Peterburg shahrida vatandoshlarimizning 15 ta jamoat birlashmasi vakillari bilan muloqot bo'lib o'tdi.

Yurtdoshlarimiz O'zbekistondagi ijobiy o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borayotganini, davlatimiz ularning holidan xabar olayotganidan mamnun ekanini alohida ta'kidladi. "Vatandoshlar" jamoat fondi va 9 ta jamoat birlashmasi o'rtasida memorandumlar imzolandi.

Huquqiy bilimlar inson sha'ni va himoyasi uchun

Har bir mamlakat muayyan qonun va tartiblar asosida faoliyat yuritadi. Zero, qonunlar davlatning tirgigidir. Qonunlarni bilish, unga amal qilish, avvalo, belgilangan tartib va me'yorlar doirasida inson qadrigimmi, huquqlarini ham himoyalaydi. Uni turli noqonuniy munosabatlardan asraydi. Qolaversa, o'zga mamlakatlarda yashab, mehnat qilayotgan boshqa davlat fuqarolari yurish-turishi, yashashi, o'zini tutishi bilan o'z mansub millatning madaniyati, axloqi to'g'risida tasavvurlarni shakllantiradi.

Rossiyada mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizning halol mehnati, ishga, qiziqchilikka qat'iy munosabati, muomalasi, madaniyati, mamlakat tub aholisiga ko'rsatgan amaliy va ma'naviy yordamlari haqida har bir hududda juda ko'p ijobiy munosabatlarni eshitdik.

Shu bilan birga, ayrim holatlarda yurtdoshlarimiz ichida muayyan tartiblariga xilof ravishda ruxsatsiz (patentsiz) faoliyat yuritayotganlar, mehnat qonunchiligi bo'yicha yetarli tushunchaga ega bo'lmaganlar aniqlandi. Shu bois, ular o'rtasida huquqiy targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi. Soha vakillari tomonidan 6 mingga yaqin vatandoshimiz bilan diniy-ma'rifiy mavzularda ham suhbatlar tashkil etildi.

Respublika ishchi guruhi a'zolari Rossiyadagi xorijlik fuqarolarni vaqtinchalik ushlab turish markazlarida ham bo'ldi va turli sabablar bilan ushlab turilgan fuqarolar holidan xabar olindi.

Bu muassasalarda saqlanayotgan migrantlarning 52 nafari O'zbekistonga qaytarish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Ularga "Yoshlar daftar" jamg'armasi mablag'lari hisobidan aviachiptalar olib berildi, bir nechasi yurtdoshimiz bo'sh ish o'rnlari qaylashtirildi.

"Biz doimo o'zimizni O'zbekistondan olisdamiz, deb bilardik, lekin Vatanimiz bizdan olisda emas ekan. Har doim biz bilan ekan, buni bugun yurakdan his qildik. Mana shu joyda qiyinlab turgan chog'imizda Prezidentimiz vakillari kelib, bizga yordam ko'rsatdi... O'zingniki baribir o'zingniki ekan-da..."

Bu Rossiyaning turli hududidagi xorijlik fuqarolarni vaqtinchalik ushlab turish markazlarida saqlanayotgan 144 fuqaromizning muammolari hal etilganda yuraklardan otilib chiqqan so'zlar.

Tashrif doirasida Rossiyada mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz, talaba-yoshlarimiz hamisha ularga mehr bilan boqib, madad qo'lini cho'zib turuvchi Vatani borligini chin yurakdan his qildi.


NUQTAYI NAZAR

SOHIBQIRON BOSHLAB BERGAN HAMKORLIK

BUGUNGI KUNDA YANGICHA MAZMUN VA SUR'ATDA RIVOJLANMOQDA

O'tgan yilning 23-noyabr sanasi nainki O'zbekiston va Fransiya, balki dunyo madaniyat olamida muhim voqea sifatida iz qoldirdi. Chunki shu kuni Prezidentimizning Fransiya rasmiy tashrifi doirasida "O'zbekiston vohalarining mo'jizalari. Karvon yo'llari chorrahasida" ko'rgazmasi ilk bor jahondagi eng yirik muzeylardan birida ochildi. Ko'rgazmaga tayyorgarlik ishlari 4 yil davom etib, mashhur Parij muzeyi uchun soqol, yog'och, metall, devor suratlari va qog'ozdan tayyorlangan 70 dan ortiq eng nodir eksponat rasvatratsiya qilindi. Yurtimiz tarixining 1500 yildan ortiq davrini qamrab olgan ko'rgazmadan 138 ta noyob ashyo, shu jumladan, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSHning nufuzli muzeylaridan keltirilgan 31 ta buyum joy oldi.

**Abdusobir RAIMQULOV,
Yahyo G'ulomov nomidagi
Samarqand arxeologiya instituti
bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari
doktori**



sathidan kamida o'n metr chuqurlikda undan ham qadimiyroq mudofaa devorlari qoldiqlari topildi. Ular Samarqand shahri 2500 yildan ham avvalroq paydo bo'lganini ko'rsatardi. Keyinchalik bu yerdan olingan tuproq namunalarini Fransiyaning eng yirik laboratoriyalarida tahlildan o'tkazilib, ularning yoshi o'rta 2750 yillik ekanini aniqlandi. Samarqanddagi kashfiyot to'g'risida Fransiya va Yevropaning



eng nufuzli nashrlarida o'nlab ilmiy maqola chop etildi.

Bu tadqiqotlar natijalari UNESCO Bosh konferensiyasining 2005-yil 20-oktabrdagi 33-sessiyasida Samarqand shahrining 2750 yilligini nishonlash va unda UNESCOning ishtirok etishi to'g'risida qaror qabul qilinishiga asos bo'ldi. Samarqand shahrining 2750 yillik qutlug' sanasi 2007-yilda mustaqillik bayrami tantanalari kunlarida xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

O'zbekiston — Fransiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining yana bir guruhi tomonidan qadimiy Kesh shahrining ayni kunlargaacha yetib kelgan xarobalari bo'lgan, hozirgi Kitob tumani Ko'mirtepa qishlog'i atrofida joylashgan Podayotoqtepa, Uzunqir va Sangirtepa yodgorliklarida keng qamrovli arxeologik qazishma ishlari olib bordi. Tadqiqotlar natijasida topilgan ko'plab osori atiqalar Kesh — Shahrisabz shahrining 2700 yillik yoshini aniqlashda ishonchli manba bo'lib xizmat qildi.

Ekspeditsiyaning yana bir yirik loyihasi tufayli o'tgan asrning 90-yillari ikkinchi yarmida Samarqanddan 30 kilometr shimolda, Chelak shahridan 5,5 kilometr masofada joylashgan Ko'ktepa yodgorligida miloddan avvalgi XII asrda, ya'ni bundan qariyb 3100 yil avval paydo bo'lgan qadimiy shaharning xarobalari topildi. O'n besh yildan ortiqroq vaqt davomida tinimsiz olib borilgan arxeologik tadqiqot-

lar fanga bu noyob yodgorlik to'g'risida juda katta ilmiy kashfiyotlar berdi. Ko'ktepa miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning oxirgi choragida, so'nggi bronza va ilk temir davrida shakllangan, nafaqat Sug'd, balki Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan birining xarobasi ekanini ilmiy jihatdan isbotlandi. Sug'd — Sug'diyaning birinchi poytaxti, afsonaviy Basileya shahrining joylashgan o'rni aniqlandi.

Agar Afrosiyobni Ko'ktepa bilan solishtir-sak, Samarqand Aleksandr Makedonskiy yurtimizga bostirib kelgan davrda Sug'd eng yirik iqtisodiy va savdo markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, Ko'ktepa o'rnidagi shahar — Basileya esa siyosiy markaz, Sug'dning birinchi poytaxti maqomida bo'lgan.

O'zbekiston — Fransiya (Afrosiyob) ekspeditsiyasi asoschisi, akademik, marhum Pol Bernar, shogirdi Frans Grene va unda ishtirok etgan boshqa olimlar tomonidan yozilgan, Amerika, Yevropa va Osiyo mamlakatlardagi eng nufuzli nashrlarda chop etilgan o'nlab ilmiy maqola va monografiyalarda Sug'dning qadimiy tarixi, madaniyati, aholisining diniy va dunyoviy qarashlari, sug'd tili va yozuvi tadqiq qilinib, ular bois, dunyo ahli O'zbekistonning qadimiy madaniyatidan yanada kengroq boxabar bo'ldi.

Frans Grening qadimiy sug'd tarixi va madaniyati ustida olib borgan qariyb o'ttiz besh yillik tadqiqotlari Fransiyaning o'zida ham yuksak qadrlanadi. 2022-yil iyul oyida Frans Grene Fransiya Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolariga qabul qilinib, akademik degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi. Olimning uzoq yillik ilmiy zehmatlari Samarqandda ham e'tibor topgan, u "Samarqand shahri-



ning faxriy fuqarosi"dir. Frans Grene Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron delegatsiyasi safida ham yurtimizga tashrif buyurdi.

Hozir Madaniy meros agentligi tasarrufidagi Samarqand arxeologiya instituti bilan Fransiyaning jahonga mashhur Luvr muzeyi o'rtasida 2009-yildan boshlab hamkorlik o'rnatilgan. Tashkil etilgan O'zbekiston — Fransiya (Luvr) xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan ayni kunlarda Buxoro shahri hamda ushbu vohadagi qadimiy va o'rta asrlar davri shaharsozligi madaniyatini o'rganish borasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Arkdagi qazishma maydonlarida o'rganilgan qadimiy me'moriy inshootlar qoldiqlari ayni paytda qurilishi rejalangan "Buxoro arxeologiya parki"ga asos qilib olinmoqda.

Ekspeditsiya Romitan qo'rg'oni yodgorligida ham keng miqyosli arxeologik qazishmalar olib bordi. Bu yerdagi yirik saroy qoldiqlari to'laqancha o'rganildi va "ochoq osmon ostidagi muzey" barpo etish bo'yicha tayyorgarlik ishlari ketmoqda.

Fransiya qiroli Karl VI Amir Temur bilan mustahkam siyosiy aloqa o'rnatishga intilgan. Ushbu sa'y-harakat samarasi o'laroq olib borilgan yozishmalarning bir qismi Fransiya hujjatlar arxivida saqlanadi. Ulardan Amir Temur ham, Karl VI ham o'zaro do'stlik va birdamlikdan, bitim tuzishdan manfaatdor bo'lganini anglash mumkin.



O'zbekiston — Fransiya aloqalarining hozirgi davrida ham Sohobqiron bobomiz faoliyati va dahosi juda katta o'rin tutadi. 1987-yilda Parijda mashhur olim Lyusyen Keren Temuriylar san'ati va madaniyati uyushmasiga asos solib, unda bu borada tadqiqot olib borayotgan ko'plab fransiyalik olimlarni jamlagan.

Mustaqillik sharofati bilan ikki davlat o'rtasidagi madaniy, ilmiy aloqalar yanada mustahkamlanganidan keyin uning nomi Temuriylar san'ati va madaniyati, O'zbekiston — Fransiya madaniy aloqalari uyushmasi deb qayta nomlandi. O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham bu tashkilot faoliyatida ishtirok etib kelmoqda. Hamkasb olimlarimiz Temur Shirinov va Amridin Berdimurodov mazkur uyushma vitse-prezidentlari hisoblanadi. Uyushma tomonidan Parijda 1988-yildan buyon "Lya Timuride" jurnali nashr etiladi. Bu jurnalda o'zbekistonlik tarixchi, qadimshunos, manbaxunos olimlar tadqiqotlariga keng o'rin beriladi. Hozirgi kunda jurnal tashkil etilganining 35 yilligi munosabati bilan uning maxsus soni nashrga tayyorlanmoqda.

Temuriylar san'ati va madaniyati uyushmasiga asos solgan mashhur olim, marhum Lyusyen Kerening xizmatlari O'zbekistonda ham yuksak e'tirof etilgan. Olim 1996-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan, Samarqand shahridagi fransuz tiliga ixtisoslashgan 43-umumta'lim maktabiga Lyusyen Keren nomi berilgan.

Ayni paytda Temuriylar san'ati va madaniyati, O'zbekiston — Fransiya madaniy aloqalari uyushmasiga va "Lya Timuride" jurnaliga Lyusyen Kerening iqtidorli shogirdi Frederik Bressand xonim rahbarlik qilmoqda. U Fransiya O'zbekiston tomonidan uyushtiriladigan konferensiyalar, ko'rgazmalar, kitoblar taqdimoti, xullas, barcha tadbirlarning doimiy va faol ishtirokchisi, ayni kezza, o'nlab xayriy ishlar tashkilotchisi ham. Ko'plab o'zbekistonliklar bu mehmondo'st ayonligi o'lasida, o'zbekona jihozlangan uyda bo'lgan. Frederik Bressand xonim O'zbekistonda ham, Fransiya hamda dunyoning boshqa davlatlariga qilgan sayohatlarida ham doimo o'zbekona libosda yuradi.

Bressand xonimning xizmatlari O'zbekistonda, xususan, Samarqandda e'tiborda va ehtiromda. O'tgan yili Samarqandda Temuriylar san'ati va madaniyati, O'zbekiston — Fransiya madaniy aloqalari uyushmasining 35 yilligi keng nishonlandi, uning rahbariga "Samarqand shahrining faxriy fuqarosi" faxriy nishoni berildi. Frederik Bressand xonim Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron delegatsiyasi tarkibida, yana o'zbekcha libosda yurtimizga tashrif buyurdi.

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida imzolangan hujjatlarda ikki davlatning o'zaro munosabatlari strategik sheriklik darajasiga ko'tarish niyati qayd etilib, madaniy meros sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiya ham qabul qilindi. Ko'hna shaharda ochilgan Fransuz alyansi filiali esa madaniyat va til sohasidagi ikki tomonlama almashinuvlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Demakki, Sohobqiron bobomiz davrida tamal toshi qo'yilgan hamkorlik, birdamlik munosabatlari bugungi kunda yangicha mazmun va jadal sur'atda rivojlanmoqda.


XALQARO ANJUMAN

IBN SINO: "PARHEZ QIL SHAKARDIN ZAHARI BO'LSA..."

**Ikromiddin OSTONAQULOV,
O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi
katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori**

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot universitetida 12-xalqaro Ibn Sino o'qishlari ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. "Ibn Sino merosining jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishdagi o'rni" mavzusidagi anjumanda AQSH, Turkiya, Eron, Rossiya, Qirg'iziston, Xitoy, Janubiy Koreyadan kelgan xalq tabobati mutaxassislari, xususiy tibbiyot markazlari rahbarlari, ilohiyotshunos va faylasuflar ishtirok etdi.

Tadbir doirasida tashkil qilingan dori-darmon ko'rgazma-bozorida tibbiy mahsulot ishlab chiqaruvchi qirq-dan ortiq xususiy firma o'z mahsulotlarini namoyish etib, shartnomalar imzoladi.

Ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalari-da Abu Ali ibn Sino asarlari asosida insonning o'z xilqatini anglashi, yuksak axloqiy fazilatlariga erishishi,

man deb o'zingni ko'p qiynayverma. Chunki har kim o'z nasibasidan ortiq bitta don ham yeya olmaydi", degan so'zlari sharhladi.

Qatnashchilar allomaning o'sha davrda ham parhez borasida e'tiborga molik nasihatlar va maslahatlar berganini ta'kidlab, "Parhez qil shakardin zahari bo'lsa", degan misralarini yodga oldi.



ruhiy sog'lomlikka intilishi, borliq bilan uyg'unlikda umr kechirishi kabi g'oyalari yotgani ta'kidlandi.

Ma'ruzalarda allomaning faqat tibb olimigina emas, balki buyuk faylasuf, tabiatshunos, ruhiyatshunos, ilohiyotchi, shoir bo'lgani uning asarlari tahlili asosida yoritib berildi.

AQSHning Jorjtaun universiteti tibbiyot markazi biokimyosi, hujayra va molekulyar biologiya kafedrasini rahbari, professor Hakima Amriyning "Tib qonunlari"da ta'kidlangan "Hayot issiqlik va namlik bilan poydordir", "Nafs va ruhning tibbiy mohiyati" mavzularidagi ma'ruzasi ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi. U buyuk olimning tabiat hodisalarini tushuntirishlaridan misollar keltirar ekan, Ibn Sino koinotdagi to'rt unsur — yer (tuproq), suv, olov va havoni tabiatning boshqa bo'laklariga bo'linmaydigan juzvlari deb hisoblaganini bildirdi.

Anjumanda Ibn Sino diniy bilimlarni chuqur bilgani, inson ruhiyatiga aloqador tasavvuf ta'limoti bilan nafsini tarbiyalagan faylasuf bo'lgani tilga olindi. Uning o'z shogirdlariga, zamondoshlariga qaratib aytdi: "Kundalik tashvishlar juda ko'p, qayg'uraverma. Mol ortira-

Aytilganidek, Ibn Sino merosi o'zbek tili leksikasini ilmiy asarlarda ishlatilgan so'z va atamalar hisobiga ham boyitadi. "Tib qonunlari" asari arab tili leksikasini, tarjima qilingan matnlari o'zbek tili leksikasini boyitishga xizmat qildi.

Anjumanda "Ibn Sino ijodida hayot za'vqi va mazmuni", "Ibn Sino ilmiy merosining musiqiy va falsafiy qarashlari talqini", "Ibn Sino nuqtayi nazarida ruh va uning zamonaviy falsafadagi talqini", "Ibn Sino ilmiy merosining Yevropa tafakkuriga ko'rsatgan ta'siri", "Abu Ali ibn Sino ilmiy merosining nevrologik qarashlari", "Ibn Sino va kardiologiya", "O'zbekistonda yaratilgan tovarlar kimyosi va xalq tabobati fanlari hamda ularning istiqbol-lari", "Xalq tabobatining zamonaviy sog'liqni saqlashga integratsiyasi" kabi mavzularda ma'ruzalar qilindi. Turkiyadagi "Medar" markazi vitse-prezidenti Vali Qoratosh "Ibn Sino — dono shifokor" hujjatli filmi taqdimotini o'tkazdi.

Buxoroda bo'lib o'tgan bu yilgi an'anaviy "Abu Ali ibn Sino o'qishlari" buyuk vatandoshimizning tabarruk nomi va o'lmas merosi bugun ham bizi bilan hamzamon va hamnafas ekanini yana bir bor isbotladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati" DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Xayriddinmurod Abulfayzov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00